



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Juraxujayev Davronxo'ja
Davronxo'ja og'li

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Tabiiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi
E-mail: davron0728@mail.ru; Telefon: +998935918567*

MUAMMOGA ASOSLANGAN O'QITISHNI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada muammoga asoslangan o'qitish uslubi va uni ta'lim jarayonida qo'llashning tavsiya etiladigan bir qator bosqichlari hamda ularning qisqacha tavsifi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: muammoga asoslangan o'qitish, tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqot va tahlil, fasilitator, kompetensiyalar.

Mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta'lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, fanlarni chuqurlashtirib o'qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Bugungi dunyo taraqqiyotida ta'lim ishtirokchilarining amaliyot bilan ishlash dasturlari alohida o'ringa ega bo'lib, ularning ulushi jahon mamlakatlarining rivojlanganlik darajasiga mutanosibdir. Shu boisdan ta'lim tizimida o'qitish va bilimlarni hayotda qo'llashni o'rgatishning yangidan-yangi texnologiyalari, metodlari yaratildi, nazariyada tadqiq qilinadi hamda amaliyotga joriy qilinadi. Biroq bir xorijiy davlatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilayotgan ana shunday texnologiyalardan biri muammoga asoslangan o'qitish sanalib, keyingi yillarda ko'plab olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilmoqda hamda ilgari surilgan g'oyalar,



nazariyalar, qarashlar tajribada sinab ko‘rish orqali amaliyotga singdirilmoqda [3; 5-b.].

Muammoga asoslangan o‘qitish (Problem-Based Learning – PBL) kongnitiv jarayonlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga egaligi, ma’lum bir faoliyat yoki loyihani o‘zida qamrab olishi va turli izlanishlarda bir-biridan farqli ravishda tadqiq qilinishi bilan diqqatni tortadi. U ayrim yondashuvlarda muammoli ta’lim texnologiyasi tarzida qaralsa, ba’zi hollarda muammoli ta’limning innovatsion metodi sifatida talqin qilinadi [2].

Muammoga asoslangan o‘qitish faol o‘rganish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi samarali pedagogik usul sifatida tan olindi [4]. U ko‘pincha an’anaviy ma’ruzaga asoslangan ta’limga qo‘shimcha yoki muqobil usul sifatida qo‘llaniladi bu esa o‘quvchilarning o‘rganish tajribasini oshirishga va ularni haqiqiy dunyo muammolariga yaxshiroq tayyorlashga xizmat qiladi.

Muammoga asoslangan o‘qitishning amaliy qo‘llanilishi turli ta’lim muassasalarida, jumladan, tibbiy ta’lim, muhandislik, biznes va menejment, ijtimoiy fanlar, boshlang‘ich va o‘rta ta’lim, kasbiy rivojlanish, tadbirkorlik va innovatsiyalar, atrof-muhit va barqarorlik ta’limida ko‘rish mumkin. Muammoga asoslangan o‘qitish maxsus fanlar, o‘quv maqsadlari va o‘quvchilar populyatsiyasiga mos ravishda moslashtirilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Muammoga asoslangan o‘qitishni amaliyotda qo‘llash uchun o‘quv maqsadlarini aniqlash, muammoning haqiqiy ssenariylarini tanlash yoki loyihalashtirish, guruh muhokamasiga ko‘maklashish, tadqiqot va izlanishlarni rag‘batlantirish, yechimlar yoki strategiyalarni ishlab chiqishni qo‘llab-quvvatlash, fikrlash va taqdimotlarni rag‘batlantirish, o‘quv natijalarini baholash va doimiy ravishda ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqqan holda muammoga asoslangan o‘qitishni tashkil etishda o‘qituvchilardan quyidagi bosqichlarni amalga oshirish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval.

Muammoga asoslangan o‘qitishni tashkil etishda o‘qituvchilardan amalga oshirish tavsiya etiladigan bosqichlar va ularning qisqacha tavsifi

| № | Bosqichlar | O‘qituvchi tomonidan bajariladigan ishlarning qisqacha tavsifi |
|---|-------------------------------|---|
| 1 | O‘quv maqsadini aniqlash | O‘quv rejasi yoki mavzuga mos tarzda aniqlanadi. |
| 2 | Muammoni tanlash (loyihalash) | O‘quv maqsadlariga mos keladigan haqiqiy muammo ssenariysini tanlash. Muammo qiyin, ochiq va o‘quvchilar hayoti yoki kelajakdagi kasbiga tegishli bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. |
| 3 | Guruhlarni shakllantirish | Hamkorlik va jamoaviy ishlashni shakllantirish uchun o‘quvchilar 3-6 kishidan iborat kichik guruhlariga bo‘linadi. Guruhdagi o‘quvchilar |



| | | |
|----|------------------------------|--|
| | | ilmiy salohiyatiga ko'ra bir xil taqsimlanishi maqsadga muvofiqdir. |
| 4 | Muammoni taqdim etish | Muammo o'quvchilar jamoasiga taqdim etiladi. |
| 5 | Muhokamalarni nazorat qilish | Ma'ruzachi emas, balki fasilitator ¹ sifatida ochiq savollar berish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va faol ishtirok etishni rag'batlantirish orqali guruh muhokamalarini nazorat qilish hamda kerak bo'lganda yordam va ko'rsatma berish. |
| 6 | Tadqiqot va tahlil | O'quvchilarni muammoni tadqiq qilish va tahlil qilishga undash. Ilmiy adabiyotlar, veb-saytlar hamda mutaxassis xulosalarini tanqidiy baholash va ularning natijalarini tahlil qilishga o'rgatish. |
| 8 | Yechimlarni ishlab chiqish | Muammoni hal qilish uchun mumkin bo'lgan yechimlar yoki strategiyalarni ishlab chiqishda o'quvchilarga yordam berish. Ijodkorlikni, innovatsiyalarni, bilim va ko'nikmalarni qo'llashni rag'batlantirish. O'quvchilar taklif qilgan yechimlarning maqsadga muvofiqligi va axloqiy oqibatlarini ko'rib chiqishga yordam berish. |
| 9 | Guruh xulosalarini tinglash | Guruhlariga o'z yechimlari yoki topilmalarini sinf yoki kengroq auditoriyada taqdim etish imkoniyatini yaratish. O'quvchilardan nimani o'rganganliklarini va uning hayotiy vaziyatlarda qanday qo'llanilishini ko'rib chiqishni so'rash orqali metakognitiv aks ettirishni rag'batlantirish. |
| 10 | Yakunlash va baholash | Belgilangan maqsadlar asosida o'quvchilarning muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, hamkorlik qilish, bilim va ko'nikmalarni qo'llash qobiliyatini baholash hamda o'quvchilarning o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun konstruktiv fikr bildirish. |

Ushbu bosqichlarni bajarish orqali muammoga asoslangan o'qitishni samarali qo'llash mumkin. O'quvchilarning muvaffaqiyatini ta'minlash va ta'lim natijalarini maksimal darajada oshirish uchun jarayon davomida yo'l-yo'riq, qo'llab-quvvatlash va fikr-mulohazalarni taqdim etishni unutmaslik lozim.

Xulosa o'rnida shun ta'kidlash joizki muammoga asoslangan o'qitish o'quvchilarni real hayotdagi qiyinchiliklarga tayyorlaydigan, tanqidiy fikrlash

¹ **Fasilitator** - uchrashuvlar yoki muhokamalar davomida bir guruh odamlarga birgalikda yaxshiroq ishlashga, ularning umumiy maqsadlarini tushunishga va ushbu maqsadlarga qanday erishishni rejalashtirishga yordam beradigan shaxs. Bunda fasilitator "neytral" bo'lib qoladi, ya'ni ular muhokamada alohida pozitsiyani egallamaydilar.



ko‘nikmalarini rivojlantiradigan va bilim va ko‘nikmalarni mazmunli yo‘llar bilan qo‘llash qobiliyatini oshiradigan qiziqarli yondashuv hisoblanadi. muammoga asoslangan o‘qitishni samarali qo‘llash o‘quvchilarda real hayotdagi muammolarni hal qilish imkoniyatini beradigan kompetension ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni [Elektron resurs]. – URL: <http://lex.uz//uz/docs/-5841063>.

2. BARROWS, H. S. A taxonomy of problem-based learning methods. Medical Education, [s. l.], v. 20, n. 6, p. 481–486, 1986.

3. Ibragimov A. Malaka oshirish ta’limida muammoga asoslangan o‘qitish texnologiyasini qo‘llash. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022. – 46 bet.

4. Нуртазин С.Т., Базарбаева Ж.М., Есимсиитова З.Б., Еремекбаева Д.К. ИННОВАЦИОННЫЙ МЕТОД «ПРОБЛЕМНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ» (PROBLEM-BASED LEARNING -PBL) // Успехи современного естествознания. – 2013. – № 5. – С. 112-114;

5. Xamroyeva F.A., Juraxujayev D.D. Geografiyada fanlararo integratsiya Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. – 84 b.